



O‘QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Annotatsiya:

Ushbu maqolada respublikamizda bugungi kundagi ekologik muammolar va ularni bartaraf etish uchun keng ko‘lamda olib borilayotgan ishlar, o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, aksiologik yondashuv va uning mohiyati, ekologik madaniyatni targ‘ib qilish usullari hamda bu borada hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan chora- tadbirlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar:

ekologiya, ekologik madaniyat, aksiologiya, yashil makon, tabiat va inson, atrof -muhitni muhofaza qilish.

Information about the authors

Shukurova Marjona Sherali qizi

Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasida talabasi

Amonov Mirjon Namozovich

Ilmiy rahbar: Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasida o‘qituvchisi

KIRISH. Ekologik madaniyat- bu atrof muxit to‘g‘risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg‘usiga ega bo‘lish, o‘simliklar xamda xayvonlarga nisbatan g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, tabiat zaxiralariidan oqilona foydalanish, ularni ko‘paytirish borasida qayg‘urishga qaratilgan amaliy faoliyatning yuksak ko‘rsatkichidir. Ana shu xislatlarni o‘zida aks ettira olgan insonni ekologik tarbiya egasi deb atash mumkin. Demak, har bir inson o‘z tug‘ilib o‘sgan ona zaminiga, yashayotgan atrof-muhitiga nisbatan mehr-muhabbat bilan ulg‘ayishi kerak. Buning uchun, avvalo, bu tushunchalar insonlar, o‘quvchilar ongiga oiladan, maktab ta‘lim -tarbiyasidan boshlab singdirilib borilishi darkor. Bundan anglashiladiki, ekologik madaniyat tushunchasi, uni tushunish va targ‘ib qilib amalda ham bajarish aynan bir shaxs, rahbar yoki amoldorning emas, butun insoniyatning zimmasidagi mas‘uliyatli vazifalardan biridir. Ekologik madaniyat tushunchasi aslida juda keng qamrovli tushuncha bo‘lib o‘quvchilarga bosqichma-bosqich tushuntirib boriladi[1].

Hozirgi kunda ekologik madaniyatni rivojlantirishda turli yondashuvlarga tayaninsh ham o‘rinlidir. Bunday yondashuvlardan biri aksiologik yondashuv hisoblanib uning mohiyati bizning azaliy qadriyatlar bilan bog‘lanadi.

Aksiologik yondashuv - bu ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar tizimiga yo‘naltirilgan nazariy g‘oyalar majmui bo‘lib, ularning o‘zagi inson hayoti, erkin ijodiy faoliyat va insoniy mulqotning qadriyatini tushunish va tasdiqlashdan iborat.

Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi umuminsoniy madaniyatning ma‘naviy va moddiy qadriyatlarini o‘zlashtirishdir.

Aksiologik yondashuv insonparvarlik pedagogikasining uzviy o‘ziga xosligi bo‘lib, barcha odam unda jamoaviy rivojlanishning maqsadi va jamiyatning oliy qadriyati sifatida qaraladi. Shuning uchun aksiologiyaga (tabiiy qadriyatlar haqidagi (nazariy) falsafiy nazariyalar) yangi ta‘lim falsafasi sifatida va zamonaviy pedagogika metodologiyasiga uyg‘un tarzda qaraladi. Pedagogik voqelikni o‘rganishda



ilmiy bilishning boshqa usullari bilan birga aksiologik yondashuv ham katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy bilishda olam, undagi narsa, voqea, hodisa va boshqalar qadriyatning inson ongida aks etishi, qadriyatni anglashning reallikka mos kelish qonunlari, daraja va imkoniyatlari, uning me'yor va mezonlarini aniqlash nihoyatda muhim. Qadriyatlarni anglash, o'rganishda hissiy va aqliy bilishning uyg'unligi, hukm, xulosalarning tushuncha, atama va belgilarni umumlashtirishi, tabiiy va ijtimoiy voqelikdagi aksiologik jarayonlarni tahlil qilish, ularga tayanib amaliy faoliyat yuritish bir-biri bilan bog'liq uzviy jarayonni anglatadi [1].

ASOSIY QISM. Bugungi kunda dunyoda tabiatda ro'y berayotgan ekologik muammolar oqibatlarini bartaraf etishda ekologik ta'lim va madaniyatning o'rnini nihoyatda muhimligini ko'rsatmoqda. Jumladan, ekologik madaniyat bu shaxsning atrof-muhitga ma'suliyatli munosabatiga oid bilim, ko'nikma, qadriyat, ma'naviy va ahloqiy me'yorlar hamda ularni amalda ongli ravishda samarali qo'llay bilish faoliyatining yuksak ko'rsatkichlari majmui ekanligini yosh avlodga singdirish orqali ularda tabiatga bo'lgan munosabatni rivojlantirishni taqazo etadi. Ekologik madaniyat – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va ma'suliyatli yondashuvdir. Ekologik bilim va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlarini:

1. axloqiy-ekologik onglilik shaxsning muhim madaniyatlik sifati bo'lib, uning atrof – muhitni hissiy bilish jarayoni atrof – muhitdagi obyektlar va hodisalarni sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, ziyraklik va teranlik asosida tabiat muhofazasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligini nazarda tutadi;
2. ekologik ma'suliyatlik shaxsda munosabat va ma'sullikni tarbiyalashda namoyon bo'ladi, bunday munosabat shaxsning bilib-bilmay, uzoqni o'ylamay tabiatga ko'rsatgan salbiy ta'siri oqibatlarini anglash va bunday ta'sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi;
3. ekologik irodaviylik shaxsning o'zi va o'zgaralarning atrof – muhitdagi hatti-harakatlarini baholashi va nazorat qilishi shaxsdagi qat'iyatlik, tejamkorlik, ozodalik va pokizalik bilan bog'liq. Shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirishda ekologik qadriyatlar alohida ahamiyatga ega, ularga tabiatni asrab-avaylashga intilish, tashabbuskorlik, izchillik, mehnatsevarlik va ongli faollik kabilar kiradi. Masalan, ekologik qadriyatning bir turi, ya'ni global, mintaqaviy va lokal ekologik muammolarni bilish yer, suv, energetik muammolar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, cho'llanish jarayoni, atmosfera havosining ifloslanishi kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Ekologik ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash bog'chalar, maktablar, lisey, kollejlarda oliygo'hlarda mutaxassislar tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq.

Oliy va o'rta maxsus ta'limga ega bo'lgan tarbiyachi, ekologik metodist, ekologik pedagog, ekologik instruktor, injener-ekolog, ekolog-agroximik, ekolog-texnolog kabi mutaxassislar tayyorlanishi lozim. Ekologik ma'naviyatli shaxs tabiatdagi obyekt va hodisalarni qiyoslay olishi, ongli tushunchalar hosil qilishi, tabiatga munosabatni oldindan rejalashtirishi, atrof-muhitdagi o'zgarishlarga nisbatan ziyrak bo'lishi, tabiatga qiziquvchan bo'lishi, tabiat go'zalligini his eta olishi, tabiatni muhofaza qilishda qat'iyatli bo'lishi, tabiatga zarar yetkazmaslik, boshlangan ishni oxirigacha yetkazishi, atrof-muhit muhofazasida tashabbus ko'rsatishi, tabiatni asrash uchun yangi g'oyalar, ekologik bilimlarni targ'ib qilishi, ijtimoiy foydali mehnatga havas hissini shakllantirishi, mehnat malakalarini egallashi, o'z-o'zini nazorat qila olishi, tabiat bilan munosabatga kirishish va undagi faoliyatda me'yor darajasini belgilashni bila olishi, vatanparvarlik, ona tabiatga mehr-muxabbat hissiyotiga ega bo'lishi, o'zi yashab turgan uy, mahalla, shahar tabiatini sevishi, undan g'ururlanishi, uni ardoqlashi lozim, tabiat boyliklaridan bugungi va kelajak avlodlar ehtiyojlarini qondirishni hisobga olgan holda barqaror foydalana olishi, atrof - muhitni obod qilishga intilish, uni ozoda va xushmanzara holda saqlashi, tabiatni asrab-avaylashda, tabiat boyliklarini maqsadli ishlatishda jonbozlik namoyon eta olishi, atrof -



muhit, obyekt va boshqa narsa-hodisalarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi, o'zining ekologik bilimlarini muntazam ravishda tabiatni asrab-avaylashga oid qadriyatlarimizga tatbiq qilishi lozim.

Tarixiy taraqqiyotdan ma'lumki, inson tabiatning bir bo'lagi sifatida mavjud tabiiy ne'matlardan o'z ehtiyojini doimiy ravishda qondirib kelgan. Ammo bugungi kunda bu ehtiyojlarning oshib borishi va isrofgarchilikka yo'l qo'yilishi ko'plab muammolarni keltirib chiqardi. Ayniqsa, tabiat muvozanatining buzilishida antropogen ta'sirning oshib borayotganini alohida ta'kidlash joiz. Zero, insoniyat taraqqiyotining bugungi bosqichida ilm-fan, texnika shu darajada rivojlandiki, bu yadro energiyasi, quyosh energiyasi, kimyo sanoatining rivojlangani, ishlab chiqarishning avtomatlashtirilgani, axborot texnologiyalarining rivojlantirilgani va fan-texnikaning boshqa yanada murakkab sohalarining o'zlashtirilgani bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga tabiatning yer osti va yer usti boyliklaridan sof iqtisodiy manfaatlar yo'lida foydalanish "tabiat-jamiyat-inson" tizimidagi munosabatlarning kun sayin buzilishiga, bu esa o'z navbatida, aql bovar qilmas yangi ekologik muammolarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish bugungi kunda insoniyatning oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda ibtidoiy sof tabiat haqida gapirmasa ham bo'ladi. Chunki yer yuzidagi o'rmonlar qisqarishi, shu bilan birga daraxt va butalarning kesib tashlanishi, yerlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, dorilar bilan o'g'itlandi, har xil chiqindi hamda gazlar bilan toza havo va tabiatga zarar yetkazildi. Bundan tabiiy o'zgarib borishiga va muvozanatining buzilishiga olib keldi. Tashqari tabiatda toshqinlar, o'rmon yog'inlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz beradi. Bularning barchasi tabiatning bir bo'lagidir.

Hozirda Respublikamiz yirik sanoat va agrar mintaqa bo'lib, kelajakda dunyoga yuz tutgan mashinasozlik, energetika, kimyo, oziq – ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko'zda tutulgan. Bunday ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi Respublikada ijtimoiy – ekotizmlarning holatiga muayan darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Respublikada keskin bo'lib turgan ekologik va tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar quyidagilar:

- Yirik hududiy – sanoat majmualari joylashgan tumanlarda ya'ni Angren, Olmaliq, Chirchiqlarda, Farg'ona-Marg'ilonda, Navoiy va boshqa tumanlardagi tabiatni muhofaza qilish muammolari. Bu tumanlarda ijtimoiy-ekotizm holati yaxshi emas. Chunki sanoat markazlarida chiqayotgan turli-xil gazlar va chiqindilar atrofmuhitni ekologik holatini buzulishiga olib kelmoqda.
- Agrosanoat majmuidagi ekologik muammolar.
- Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari pestisedlar va mineral o'g'itlar bilan ifloslanishi ham muammolardan biridir.
- O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, qo'riqxonalar va milliy bog'lar tarmog'ini kengaytirish.

Vujudga kelgan Orol dengizi muammosi bilan bog'liq halokatli ekologik – iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni yaxshilash, Orol dengizini saqlab qolish maqsadida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash. Orol bo'yi aholisini normal sanitar sharoitlar va ozuqa bilan ta'minlash uchun Markaziy osiyo davlatlari bilan birgalikda qisqa vaqt ichida yagona suv xo'jaligi siyosatini ishlab chiqish hamda har-bir Respublikaning Orol dengiziga quya oladigan suvi, ya'ni Orol bo'yidagi barcha tabiiy ko'llarni saqlab qolish kabi ishlar rejalashtirilgan [2].

NATIJA VA MULOHAZA. Ekologik muammolarni oldini olish maqsadida bir qancha ishlar olib borilyapdi Bu borada O'zbekiston Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022-yil 21-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida: "Tabiatimizni asrab-avaylash, suv, havo va atrof-muhitni toza tutish kelgusi yilda har bir mahalla aholisining madaniyati va amaliy harakatiga aylanishi kerak. Bu borada mavjud vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun ekologiya



va atrof-muhitni asrash bo'yicha sa'y-harakatlarimizni, xususan, «**Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasidagi ishlarimizni kuchaytiramiz.**» [1:90], deb ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, bugun barcha xalq, millat va elatlarning vazifasi – bu atrof-muhitga ziyon yetkazmagan holda tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi “2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontsepsiyasi”, 2021-yil 30-dekabrda “Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari” to'g'risidagi farmonida tatbiq etilishi belgilangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi dasturlarida atrof muhit ob'ektlarini (havo, suv, er, tuproq, er qa'ri, bioxilma-xillik, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar) inson ta'siri hamda boshqa salbiy ta'sir qiluvchi omillardan saqlash va sifatini ta'minlash hamda sanoat ishlab chiqarishi, urbanizatsiya ko'lami keskin kengayishi va aholi punktlariga tushayotgan ekologik yukni kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish rejalari ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.

“Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish, mazkur loyiha doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish belgilangan edi. Bunday keng ko'lamlı tashabbusning amalga oshirilishi natijasida shaharlarimizdagi yashil maydonlar hududi hozirgi 8 foizdan 30 foizga oshirilishi rejalashtirilgan. Umuman bu loyiha bo'yicha kelgusi besh yilda 1 milliard tup daraxt ko'chat ekilishi maqsad qilingan. Bu kabi yirik loyihalarni amalga oshirishda yoshlarning o'rni va ularga tabiatni asrash bo'yicha berilayotgan ekologik ta'limning o'rni muhimdir. Hozirda barcha shahar va qishloqlarda daraxt ekish bo'yicha keng ko'lamda ish olib borilayotgani tahsinga sazovor. SHu bilan birga har yili kuz va bahor oylarida ekiladigan daraxtlar parvarishiga, ularning keyingi taqdiriga ham e'tibor qaratilishi lozimligi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish borasidagi asosiy strategik maqsadlar quyidagilar hisoblanadi:

Aholining sihat-salomatligi uchun qulay sharoit yaratish, beosferaviy muvozanatni saqlash;

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligi va barqarorligini ko'zlagan holda tabiiy resurslardan foydalanish qayta tiklanadigan tabiiy resurslar ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining muvoznatini saqlash tiklanmaydigan resurslarni ishlab chiqarish, chiqindilardan oqilona foydalanish;

Regional va lokal darajalarda tabiatni qayta tiklanish hususiyatini tiklash; tabiatning daslabki turlari va ularning genofondini landshaftlarning xilma – xiligini saqlash.

Vujudga kelgan Orol dengizi muammosi bilan bog'liq halokatli ekologik – iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni yaxshilash, Orol dengizini saqlab qolish maqsadida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash. Orol bo'yi aholisini normal sanitar sharoitlar va ozuqa bilan ta'minlash uchun Markaziy osiyo davlatlari bilan birgalikda qisqa vaqt ichida yagona suv xo'jaligi siyosatini ishlab chiqish hamda har-bir Respublikaning Orol dengiziga quya oladigan suvi, ya'ni Orol bo'yidagi barcha tabiiy ko'llarni saqlab qolish kabi ishlar rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, “Yashil makon” umummilliy loyihasi – bu bir yillik tadbir emas”. Darhaqiqat, yashab turgan joyimizni ozoda saqlab, bizdan keyingi avlod ham munosib tabiiy muhitda yashashlari uchun bugun biz tabiatga mehr va e'tibor bersak kelajak avlod ham munosib ekologik sharoitda yashaydi. Buning uchun biz yer va suv resurslarini, ekologik tizimni asrash hamda daraxt ko'chatlarini ekib, bog' yaratishimiz zarurdir.

Hozirgi kunda davlatimiz rahbari tashabbuslari va mas'ul shaxslar tomonidan ekologik muammolarni hal qilish va bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan bunday ishlar davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Bu esa o'z navbatida, insonlarada ekologik madaniyatni yanada oshirishda, atrof-muhitni muhofaza qilish uchun zimmalaridagi mas'ulyatni teranroq his qilib, anglab yetishlarida



ko'mak bo'ladi. Ekologik madaniyatni targ'ib etishga qratilgan bunday qaror va qonunlarning ijrosini amalda bajarish har bir fuqoroning insoniylik burchidir [4].

XULOSA. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mamlakimizning har bir fuqarosi ekotizimning yaxshilanishiga munosib hissa qo'shish uchun ekologik qoidalarga qat'iy amal qilsagina, kelajak avlod uchun ulkan tabiiy nemat hadya etgan bo'lamiz. Tabiatni asrab avaylash har bir insonni burchidir. Aytish mumkinki, "tabiat-jamiyat-inson" tizimi munosabatlarini muvozanatga keltirishda, tabiat in'om etgan ne'matlardan oqilona foydalanish, tabiatni asrab-avaylashga oid g'oyalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zero, ma'naviy qadriyatlarimiz asosida farzandlarimizning ongiga atrof-muhitni ozoda tutish, havoning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, mamlakatimiz tabiatini, hayvonot va o'simlik dunyosini asrash kabi tushunchalarni singdirib borishimiz kerak. Farzandlarimizni yoshlik chog'laridan boshlab tabiatga bo'lgan muhabbatni shakllantirishiz lozim. Tabiatni asrab-avaylash har bir insonning burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.Sultonov. Ekologiya va atrof-muhitni muhofa qilish asoslari. "MUSIQA" nashriyoti Toshkent 2007.
2. S.Mustafoev, S.O'roqov, P.Suvonov Umumiy ekologiya. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent. 2006
3. Sh.Mardonov, B.Xodjayev, Sh.Taylanova, D.Xojimuxamedova. PEDAGOGIK AKSILOGIY TOSHKENT – 2013
4. Sh.M.Mirziyoev. Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. - T.: O'zbekiston, 2023.
5. Sh.Otaboev, S.Mirvaliev va E.Tursunov – Ekologiyada madaniyat va ma'naviyat muammolari. – T.: Nishon noshir nashriyoti, 2009 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. 21-aprel 2017-yil, Toshkent.